

**TOPONIMLAR YASALISHIGA DOIR GRAMMATIK MODELLAR
TASNIFI (SURXONDARYO VILOYATI SHEROBOD TUMANI
TOPONIMIKASI ASOSIDA)**

Yunusova Madina

Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi mikro va makrotoponimlar leksik-grammatik jihatlar tahlilga tortilgan. Toponimlar o'zaro tasniflanib, grammatik modellari ishlab chiqilgan. Tahlil qilish jarayonida muallif har bir grammatik model uchun izohlar berib o'tgan va ularning joylashuv hududlarini aniq ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: *toponim, Grammatik tahlil, Grammatik model, mikrotoponim, ikki komponentli toponim, uch komponentli toponim, to'rt komponentli toponim, indicator, topaasos, topoaniqlagich va h.k.*

Grammatikaning sintaksis bo'limi so'z birikmasi va gapda so'zlarning birikish yo'llarini, gap bo'laklari va strukturasini o'rganadi. So'zlarning birikishi kabi leksik-grammatik holat birikma tarkibidagi so'zlarni uzviy bog'laydi. So'zlarning o'zaro birikishi esa ularning ichki tomonlari mos kelgandagina amalga oshadi. Birikmadagi so'zlarning sintaktik munosabati ergashish hamda anikdovchi aniqlanmish asosida shakllanadi.

So'z yasashning affiksatsiya va kompozitsiya usullari mavjud bo'lib, jumladan, toponimlar yasashining ham affiksali va kompozitsion qolip va modellari mavjud. Sherobod toponimlarining ko'p qismini -lik, -li, -liq, -chi affiksli mikrotoponimlar tashkil qiladi. Bu tipdagi mikrotoponimlar obyektning joylashish o'rin, belgi-xususiyati, daraja-miqdori, negizdan anglashilgan predmetga egalik, nima mavjudlik kabi xususiyatlariga nisbatan mazkur qo'shimchalar asosida shakllantirilgan.

Yig'ilgan mikro va makrotoponimlar shuni ko'rsatadiki, Sherobod hududidagi asosiy qismi tuzilishiga ko'ra ikki, uch hamda to'rt komponentli birliklardan tashkil topgan. Bu kabi birikmalardagi so'zlar abstraksiyalashib, otlashadi va bir topoleksemani holiga keladi.

Birikmali toponimlarning aniqlanishi ko'p hollarda geografik atamalar bilan ifodalanadi. Toponimiyada qo'shma toponimlarning ikkinchi komponenti geografik atama, aniqlanmish so'z, nominativ leksema, turdosh ot, atoqli ot, indikator, oppelyativ leksema kabi har xil atamalar bilan qo'llanib kelinmoqda. Lekin bu atamalar har doim ham toponimlarga mos kelmasligini, ya'ni hamma geografik atamalar toponimlarda qo'llanavermasligini va izohlarsiz aniq ma'no bera olmasligini e'tiborga olib, ayrim toponomistlar toponimik leksika yoki toponimik terminlar deb qo'llashni ma'qul

ko'rmoqda [1]. Toponimik leksika topoasos, toponoanikdagich va topoformantlardan tashkil topishi haqida toponomist olimlar alohida ta'kidlagan [2].

Geografik atamalar (toponoaniqlagich) esa obyektning turini izohlashda, belgi-xususiyatini aniqlashda asos sanaladi [1.1]. Ba'zan esa geografik atama o'z xarakteridan uzoqlashib, aniqlanmish aylanadi. Masalan: Qorasuv, Oqsuv.

Bu kabi gidronimlaridagi "suv" leksemasi "daryo" ma'nosini ifodalayapti. Ya'ni suvning oq yoki qora rangli belgiga ega ekanligini emas, balki daryoning boshlanish o'rnini, joylashuvini ko'rsatadi. Toponimlar borasida bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Umuman olganda, birikmali toponimlarni fonetik, leksik-grammatik va etimologik tahlil qilishda geografik atamalar (topoaniqlagich) katta ahamiyatga ega sanaladi.

Geografik atamalar u yoki bu obyektning real belgisini ko'rsatish bilan birga bir xil geografik atamaning ma'lum obyektida ko'p takrorlanishi, shu obyektning tarixiy qatlamini, ijtimoiy rivojini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Masalan, birgina Ko'hitangtog'ining Sherobod tumani hududida 30 dan (Kampirtepa, Nontepa, Norqo'chqortepa, Eshimtepa, Alixontepa, Osmontepa, Bozortepa, Buloqtepa, Kultepa, Navoiytepa, Egizaktepa, Yortitepa, Qoratepa, Nomoztepa, Qo'rg'ontepa, Gulgunlitepa, Nog'oratepa, Oqtepa, To'lashtepa, Mingtoshtepa, Kalapushtepa, Shishtepa, Qorovultepa, Munchoqtepa, Sebadlitepa, Toshbuloq tepa, Umbortepa) ziyod tepa geografik atamali toponimlar mavjud. Birgina tuman hududiga qarashli tog' qismida shuncha tepalik mavjudligi shuni ko'rsatadiki, insonlar tog' va tog' etaklariga singishib, joylashib ketishgan. Tog'ni o'zlashtirishib, undagi tepaliklardan unumli foydalanib kelishmoqda [3].

Til faktlari asosida tarkib topgan birikmali toponimlar tarkibidagi o'zakning (component, asos) soniga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Ikki asosli mikrotoponimlar
2. Uch asosli mikrotoponimlar
3. To'rt va undan ortiq asosli mikrotoponimlar

IKKI KOMPONENTLI TOPONIMLAR

Ikki komponentli, ya'ni ikki asosli toponimlarda aniqlovchisi qaysi so'z turkumidan tashkil topganligiga ko'ra bir necha tiplarga ajratib o'rganish mumkin:

1. Ot + ot tipidagi toponimlar. Bu tipdagi toponimlar soni boshqa tipdagi toponimlardan ko'pligi bilan aralib turadi. Bu tipning o'zini ham bir nechta kichik guruhlariga bo'lib tahlil qilish mumkin.

a) bosh kelishikdagi atoqli ot + turdosh ot. Mazkur tipdagi toponimlarning birinchi qismi insonlarga atab qo'yilgan ismlardan yoki taxallus yoki laqablar yoki joy nomlaridan iborat bo'ladi. Masalan:

Davlat+soy: "Davlat ismli badavlat kishi yashagan soy [4]" (Kallamozor qishlog'i);

Hayitbek+tepa: Hayitbek ismli insonning nomi bilan bog'liq (Xo'jaulkan qishlog'i);

Abduavaz+buloq: Abduavaz ismli kishiga tegishli buloq nomi (Kampirtepa qishlog'i);

Ibodulla+qo'nish: Ibodulla cho'ponning yurti, yaylov nomi (Oqtosh qishlog'i);

Shomirza+jilg'a: Shomirza ismli odamga tegishli daryocha (Maydon qishlog'i);

Hoji+buloq: Hoji laqabli odamning nomi bilan bog'liq buloq nomi (Pashxurt qishlog'i).

b) bosh kelishikdagi turdosh ot + turdosh ot. Bu tipdagi turdosh otlar ham nihoyatda ko'p tarqalgan. Birinchi komponenti turli aniq va mavhum, o'z va ko'chma ma'nodagi otlardan iborat bo'ladi. Ikkinchi komponenti esa, odatda, soy, *jilg'a*, *tepa*, *ariq*, *tog'*, *buloq*, *bog'*, *daryo* kabi ot turkumiga oid so'zlardan tarkib topganligini kuzatish mumkin. Tadqiq qilinayotgan Sherobod hududida bunday toponimlar juda ko'p. Masalan:

Archa+buloq: yaylovga nisbatan qo'yilgan nom (Xomkon qishlog'i);

Qayg'u+buloq: mavhum ot va turdosh otdan hosil bo'lgan toponim (Zarabog');)

Bozor+tepa: qishloq aholisining kichik bozori oylashgan tepa (Laylagan qishlog'i);

Jiyda+buloq: jiydasi bor bo'lgan buloq (Kallamozor qishlog'i);

Non+tepa: g'allalari ko'p bo'lgan tepa (Xo'jaulkan qishlog'i);

Jayra+xona: jayra hayvoni ko'p tarqalgan dasht (Qizilolma qishlog'i).

c) ot + so'z yasovchi qo'shimcha + ot. Mazkur komponentli toponimlarni hosil qilishda faol va nafaol so'z yasovchi qo'shimchalardan foydalaniladi. Ko'pincha, -li qo'shimchasi birinchi component va ikkinchi komponentni o'zaro bog'lovchi so'z yasovchi qo'shimchasi sifatida qo'llaniladi. Masalan:

Arpa + li + soy: arpa ekilgan soy nomi. -li so'z yasovchi qo'shimchasi bilan yasalgan toponim (Qizilolma qishlog'i);

Suyak + li + soy: harom o'lgan hayvonlarning suyagi tashlanadigan, suyagi ko'p soy (G'urjak qishlog'i);

Ichak + li + soy: ichakday uzun soy nomi (Kallamozor qishlog'i);

G'aram + li + soy: g'aram, ya'ni buta o'simligi o'sadigan soy (Chilonzor qishlog'i);

Yolpiz + li + buloq: Yolpiz o'simligi ko'p o'sadigan ot (G'urjak qishlog'i);

Tuya + kash + ko'cha: "...tuyakashlik bilan shug'ullangan odamlar yashaydigan ovul, guzar, ko'cha, mahalla [4.1]". -kash qo'shimchasi bilan shaxs oti yasalgan va ko'cha so'zi qo'shib toponimik birlik holiga kelgan (G'urjak qishlog'i).

d) belgisiz qaratqich kelishigidagi ot + turdosh ot + III shaxs egalik qo'shimchasi. Bu tipdagi toponimlarda qaratqich kelishiga tushirib qoldirilgan, ammo anglashilib turadi. Bular esa o'z o'rnida A tipdagi toponimlarga juda yaqin turadi.

Chunki birinchi komponenti atoqli otdan, ikkinchi komponenti esa tog', soy, buloq, dara, bog' kabi so'zlardan tashkil topgan bo'ladi. Masalan:

Ostonaqul + buloq + i: Ostonaqulning bulog'i (Sherjon qishlog'i);

Mirzaxo'ja + buloq + i: Mirzaxo'janing bulog'i (Maydon qishlog'i);

Do'sti + gum + i: Do'sti ismli odamning nomi bilan bog'liq chuqur (Zarabog' qishlog'i).

e) belgili qaratqich kelishigidagi ot + ning + turdosh ot + III shaxs egalik qo'shimchasi komponentli toponimlar. Masalan:

Sandal + ning + yo'l + i: Sandal yayloviga boriladigan yo'l (Kampirtepa qishlog'i);

Jindala + ning + bog' + i: jin dala bog'i (Sherjon qishlog'i);

O'rozali + ning + qo'rg'on + i: O'rozali ismli odamning nomi bilan bog'liq baland tepa nomi (Oqtosh qishlog'i);

Vafodor + ning + bet + i: Vafodorning betkayi (Qizilolma qishlog'i);

Olchali + ning + bet + i: Olchali tog'ning nomi (Qizilolma qishlog'i);

Jamol + ning + hayot + i: Jamol ismli kishiga qarashli hovli, bog' (Sherjon qishlog'i).

2. Sifat + ot komponentli toponimlar. Bu tip toponimlarni ham juda ko'p uchratish mumkin.

Katta + bog': hajm-o'lchov ma'nosini bildiruvchi sifat bilan hosil bo'lgan toponim (Mahalla nomi);

Ko'r + buloq: suvsiz buloqqa nisbatan ishlatiladigan nom (Pashxurt qishlog'i);

Xilvat + soy: odamlar kam boradigan, avloq joydagi soy nomi (Kampirtepa qishlog'i).

Katta + qiyir: mayda toshli katta tepalik nomi (Qizilolma qishlog'i);

Oq + jar: oq rangdagi tuproqli jar nomi (G'urjak qishlog'i);

Qora + kamar: "...qorong'i kamar, quyosh tushmas kamar [4.2]" (Xo'jaulkan qishlog'i);

Sassiq + buloq: suvini ichib bo'lmaydigan buloq (Xo'jaulkan qishlog'i).

3. Ot + fe'l tipidagi toponimlar. Bu tip toponimlarning birinchi komponentidagi ot, asosan, inson ismi yoki hayvon-qush nomlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi komponentidagi fe'l esa o'tgan zamonda bo'ladi. Masalan:

Azlar + qo'nish: Aziz kishilar dafn qilingan, dafn qilinadigan qabriston (Xomkon qishlog'i);

Qush + jiydi // qush + jiyildi: tepalik nomi. "...mahalliy xalq izohiga ko'ra, tepalikda qichchi o'ti ko'p o'sgan. Shu o'tni qush va chorva mollari xush ko'rgan. Qushlar qichchi o'tini yeydi (jiydi) kabi ma'noda izohlaydi. Aslida qushlar yig'ilib qo'nadigan, yig'iladigan (jiyiladigan) xilvat, ovloq, chekka tepa bo'lishi mumkin [4.3]" (Guliston qishlog'i);

Amir + qo'ndi: Amir qo'nib o'tgan kamar nomi (Xatak qishlog'i);

Ot + o'ldi: ot o'lgan soy bo'lganligi sababli shunday nomlashgan (G'urjak qishlog'i);

Choriboy + qo'nish: Chori ismli odam qo'ngan, to'xtagan yaylov nomi (Kampirtepa qishlog'i).

4. Fe'l + ot tipidagi toponimlar. Masalan:

Ko'tarma + ariq: chuqur joylarni tuproq bilan to'ldirib, ko'tarib o'tkaziladigan ariq nomi (G'urjak qishlog'i).

5. **Son + ot tipidagi toponimlar.** Bu kabi toponimlarning birinchi komponenti, asosan, sanoq sonlardan iborat bo'ladi. Bu tipning o'zini yana 2 ta ichki guruhlariga ajratish mumkin:

a) O'zbekcha sanoq son + ot tarkibli toponimlar. Masalan:

Sakkiz + do'lana: do'lana o'simligi ko'p bo'lgan joy (Kampirtepa qishlog'i);

Besh + buloq: beshta kichkina buloqlarning suvi birikishi natijasida hosil bo'lgan katta buloq nomi (Xomkon qishlog'i);

Besh + qiz: afsonaviy nom (Kallamozor qishlog'i);

Birinchi + dahana: Sherobod daryosining eng qisqa o'zani shunday atalgan (Kallamozor qishlog'i);

Qirq + yigit: mozor nomi. "Aytishlaricha, 14-15 asrlarda xuddi shu yerlarda o'zbeklarning chag'atay urug'iga mansub odamlar yashagan va asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan. Yoz oylarining issiq kunlarida chag'atay urug'iga mansub 40 dan ortiq yigitlar jar tagida dam olayotganda, jar qulab tushadi va yigitlar nobud bo'lishadi. O'lganlarni jar ustidagi tepaga ko'mishadi. Shundan qirqyigit mozori nomini olgan deyiladi [4.4]" (Guliston qishlog'i).

6. **Taqlid so'z + ot tarkibli toponimlar.** Bu tipdagi toponimlarga misollarni, asosan, buloq nomlarida ko'rish mumkin.

Churq + buloq: Aytishlaricha, buloq nomi tovushga taqlid so'z bilan bog'liq ekan (Maydon qishlog'i);

Jir-jir + buloq: taqlid so'z asosida nomlamgan (Vandob qishlog'i);

Chinkillak + guzar: taqlid so'z bilan bog'liq holda nomlangan (Kampirtepa qishlog'i).

UCH KOMPONENTLI TOPONIMLAR

Bu tipdagi toponimlarning tarkibi 3 ta asosdan, o'zakdan tashkil topgan bo'ladi. Bu tipdagi toponimlarning paydo bo'lishi va shakllanishi xilma-xil hamda rang-barang bo'lib, odatda, voqea-hodisa sodir bo'lgan joyni, qarashlilikni va diniy tus berilgan obyektни bildiruvchi mikrotoponim yasaydi. Sherobod hududida ham uch asosli mikro va makrotoponimlar hamjuda ko'p uchraydi. Ammo ikki asosli toponimlardan ko'ra son jihatidan kamroq. Bularning qaysi so'z turkumlaridan tarkib topganligiga ko'ra

quyidagi guruhlarga ajratamiz. Bu tipdagi komponentlarni ham yuqoridagi kabi tasniflab chiqish mumkin. Masalan:

1. Son + ot + ot tarkibli toponimlar.

Besh+buloq+soy : beshta bulog'i mavjud bo'lgan soy.

2. Ot + fe'l + ot tarkibli toponimlar. Masalan:

To'qim + tiqildi + soy: soy nomi. Uzun soyning ayrim joylari keng bo'lsa, ayrim joylari juda tor bo'lgan. "To'qim tiqildi" majoziy ma'noda soyning ayrim joylaridan eshak ham zo'rg'a o'tadi tushunchasi asosida shu nomni olgan (Kampirtepa qishlog'i);

Bobo + o'ldi + soy: ko'p yillar davomida shu soyda yashagan bobo vafot etgan va natijada qishloq aholisi shunday nomlab ketgan (Kampirtepa qishlog'i);

Eshak + o'ldi + soy: soyda eshak o'lgan. Bu voqeadan keyin shunday nomlanib ketgan (Laylagan qishlog'i).

TO'RT KOMPONENTLI TOPONIMLAR

Ko'hitangtog' hududlaridan yozib olingan toponimlarning eng ko'p asosli to'rt o'zakli mikrotoponimlar, Qozog'istonda olti asosli gacha [5], Amerikada esa 16 asosligacha bo'lgan toponimlar mavjud [6]. Ko'hitangtog' hududidan to'rt asosli mikrotoponimlardan bir nechitasi yozib olingan. Masalan: Qorako'zkampirning ko'prigi, Qo'chqoroqsoqolning to'qayi, Go'rixurdaki xudkor ota, Mirsaidqoptol mozori (qabriston). Biz tahlil qilayotgan hududda to'rt asosli mikrotoponimlar atoqli ot + atoqli ot + turdosh ot + turdosh ot shaklida, asliy sifat + ot + kelishik affiksli ot + egalik affiksli ot shaklida, ot + asliy sifat + qaratqichli ot + egalik affiksli ot shaklida hamda forsiy izofa shakllarida ifodalangan. Bu tip mikrotoponimlar ham turli usullar bilan hosil qilingan. Masalan:

Jetim + tov + bobo + mozori: Oqtoshdagi ziyoratgoh nomi (Oqtosh qishlog'i);

Qozi + qo'sh + terak + yaylov: Qozining qo'sh teragi bor yaylovi nomi (Oqtosh qishlog'i);

Besh + kalla + po'sh + tepa: besh do'nglik. Bosh kiyimga shakily jihatdan o'xshatilib berilgan nom (Qizilolma qishlog'i)

Xulosa qilib aytganda, Sherobod hududidagi toponimlarni Grammatik jihatdan tahlil qilish va tasniflash biroz murakkab jarayon sanaladi. Buning sababi faqatgina ularning soni o'pligida emas, balki Grammatik qurilishidadir. Sherobod hududida tadqiq qilinmagan obyekt, hududlar anchagina, uni sinchkovlik bilan tahlil qilib o'rganish esa har bir tilshunos, tarixchi va geograf oldidagi muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дониdze Г.И. Гидрономические термины в тюрских языках, «Ономастика», М.: -1964, стр. 164.

2. Латипов Ж. Қўшма топонимлар ҳақида. ЎТА. 1975, 2 —сон; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. Т.:— 1985.
3. Turdiqulov Sh.D. Ko'hitang va tog'oldi mikrotoponimlarining leksik-grammatik xususiyatlari. – Termiz: 2006. (Magistrlik dissertatsiyasi)
4. Ҳ. О'. Хо'jamberdiyev. Surxondaryo viloyati Ko'hitangtog' va tog' oldi mikrotoponimlari lug'ati. –Termiz : 2011. 1-bet.
5. Попова В.А. Гидроними Повладарской области. АКД, Томск,- 1961, стр. 11
6. Никонов В.А. Введение в топонимику. М.: - 1965, с. 19.